

**GEOGRAFIYA VA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARI, HAMDA
O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Ashurova Guljaxon Nuralievna

*Andijon viloyati Oltinko'Ituman Maktab va
mактабгача та'лим музассаси 19-умумта'лим мактаби
Geografiya fani o'qituvchisi.*

Annotasiya: *Geogafiya va tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol usullari, hamda o'quvchilarni kretiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlanirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol usullar ta'rifi, mazmuni, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan. Interfaol o'qitish usullari yordamida o'quvchilarni kretiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlashtirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, usul, interfaol, kretiv, qobiliyat.*

Bugungi hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim – tarbiya mazmunini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jamiyatning yangilanishi, hayotimiz taraqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlar samarasi taqdiri, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq

Ta'lim tizimida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab va ko'p qirrali vazifani muvaffaqiyatli hal etishni faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bilan amalga oshirish mumkin. Ammo pedagogik mahorat – tug'ma talant yoki nasldan-nasnga o'tuvchi hususiyat emas, balki u izlanish, ijodiy mehnat orqali qo'lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda odatda birinchi navbatla pedagogik ta'limga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashuv YUNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda "Ta'limni rivojlanirish masalalari" bo'yicha Xalqaro Komissiyaning rahbari Egdar Foraning fikrlarida ham o'z ifodasini topdi. "Zamonaviy texnologiya ta'limni modernizasiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir".

Ta'lim – tarbiya jarayoniga ilg'or texnologiya va innovasiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda. Lekin o'qituvchilar bu interfaol usullarni aksariyat xollarda o'z faoliyatida qo'llay olmayaptilar. Chunki o'qituvchilarning asosiy qismi ta'limdagi innovation jarayonlarga tayyor emas. Shu sababli o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yangilash, innovation faoliyatga yo'naltirish, ta'lim jarayoniga innovasiyalarni kiritishga tayyorlash zarur.

Texnologiya – bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va usullari majmui hamda ta'lim va tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir. Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmunini, usul va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan xolda, pedagogik texnologiyalarni pedagogik jarayondagi samarali qo'llanilishiga ko'ra quyidagi tarkiblarga ajratishimiz mumkin:

INTERFAOL USULLAR

O'rganilayotganlarni o'zlashtritish usullari	Yangi mavzuni anglash usullari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi usullar
Erkin yozish: <ul style="list-style-type: none"> - Klaster; - Aqliy xujjum; - B-B-B chizmasi; - Chalkashtirilgan zanjirlar ketma-ketligi. 	Semantik hususiyatlar tahlili: <ul style="list-style-type: none"> - B-B-B chizmasi; - O'qitish bo'yicha qo'llanma; - Bir-biriga o'rgatish; - Bir-biridan so'rash 	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash: <ul style="list-style-type: none"> - T-chizmasi; - Konseptual jadval; - Venn diagrammasi; - Nilufar guli; - Besh daqiqalik ESSE - O'n daqiqalik ESSE

O'qitish jarayonida ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish o'quvchilar(o'quvchilar) faolligini oshirishga, bilim olishga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi, jamoa bilan ishlash mahoratini shakllantiradi, o'quvchilarda turli vaziyatlarni turli nuqtai shnazardan muhokama qilib, qaror qabul qilish mahoratini shakllantiradi, o'z faoliyatining natijalariga mas'ulllik va qiziqish uyg'otadi, muammolarga diqqatini jamlay olish, o'z bilimlarini yangi sharoitlarda, yangicha vaziyatlarga ko'chirish malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi usullar **interfaol usullar** nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol usullar

“Bumerang” usuli	“Blis so'rov” usuli
“FSMU” texnologiyasi	“Munozara” usuli
“Loyixalash” texnologiyasi	“Debatlar” usuli
“3 x 4” texnologiyasi	“Mini-test” usuli
“Ishchanlik rolli o'yin” texnologiyasi	“Modellashtirish” usuli
“Charxpalak” usuli	“Ikki qisqli kundalik” usuli
“Klaster” usuli	“Insert” usuli

“Aqliy hujum” usuli	“Munozara” usuli
“Pinboard” usuli	“Soat millari” texnikasi
“Muammoli o’qitish” texnologiyasi	“Interv’yu” usuli
“Xulosalash” texnologiyasi	“Baliq skleti” usuli
“Muzyorar” usuli	“Sinkveyn” usuli
“O’ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” usuli	“Nima usun” texnikasi

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol usullardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish yo’llari borasida so’z yuritamiz.

“AQLIY HUJUM” USULI

Aqliy hujum – g’oyalarni generasiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan xolda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar: uni echish uchun shaxsiy g’oyalarni ilgari suradilar. “Aqliy hujum”ning vazifasi kichik guruxlar yordamida yangi-yangi g’oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan o’quvchilarni kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. “Aqliy hujum” qoidalari:

- Fikr va g’oyalalar hech qanday cheklanmagan holda aytishi lozim;
- Bildirilgan fikrlar va g’oyalalar takliflar berish to’xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
- Bildirilgan har qanday g’oya va fikrlar hisobga olinmaydi;
- Qancha ko’p g’oya va fikrlarni to’ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

PINBOARD USULI

Pinboard - inglizcha pin – mustaxkamlash, board – doska degan ma’noni anglatadi. Bu o’qitish usulining mohiyati shundaki, unda munozara yoki o’quv suhbati amaliy usul bilan bog’lanib ketadi. Uning afzalligi – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir. O’quvchilarda muloqot yaratish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o’z fikrini faqat og’zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish maxorati, mantiqiy va tizimda fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi.

MUNOZARA (MUXOKAMA) USULI

Kup xollarda seminar mashg’ulotlari o’quvchilar monologlari shaklida o’tadi, kolgan o’quvchilar esa bu paytda tinglaydilar. SHuning uchun darsda Munozara usulini qo’llash barcha o’quvchilar faolligini oshirib, zerikishlarga yo’l qo’ymaydi.

“MUNOZARA”NI O’TKAZISH USULI:

1. O’qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va o’quvilarni taklif qiladi;
2. O’qituvchi o’quvchilarga “Aqliy xujum” masalasini beradi va uni o’tkazish tartibini belgilaydi, o’quvchilar guruhlarga bo’linadi;
3. “Aqliy xujum” vaqtida bildirilgan g’oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh a’zolrining har biri o’z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi;

4. O'quvchi(etakchi) ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichida bildirilgan fikr va g'oyalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul echimini topishga harakat qilinadi.

T- jadvali (Toifalash usuli):

Bu usul bir tushuncha, xodisani ikki tomonini (ijobiy va salbiy) tahlil qilib chiqishga imkon beruvchi usuldir. Bu sxema shaklida

Yutuqlari (ijobiy tomon)	Kamchiligi (Salbiy tomon)
- vaqtini tejalishi	- nutkning rivojlanmasligi
- frontal holda ish olib brish imkonii	- muloqotning yo'qligi
- mantiqiy fikrni rivojlantirish	- xamkorlikda faoliyatning yo'qligi
- baholash qulay.	- pedagogik munosabatning yo'qligi.

INTERVYU USULI

Bir birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 2-3 daqiqa vaqt beriladi. So'ng juftlikni har bir a'zosi butun guruhga o'z sherigi to'g'risidagi ma'lumotlarni biror qiziqarli faktni qo'shgan xolda taqdim etadi. Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik xissini beradi. Biroq bu usulni ham 25 kishidan ortiq guruhda qo'llash mumkin emas.

BBB jadvali va uni to'ldirish uchun tavsiyalar

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.
2. BBB jadvalini to'ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqmidan foydalaning.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim.
1	2	3

Yuqoridagi interfaol o'qitish usullar asosida o'quvchilarni ta'lim – tarbiya berish jarayonidagi faolliklarini oshiradi. O'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarni shakllantiradi.

FOYDALANILAGN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent. 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidag"gi Qonuni. Toshkent. 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent. 1997 y.
4. P.A.Mavlonova, B.Normurodoa, N.Raxmonqulova. Tarbiyaviy ishlar usulikasi. Toshkent "Fan" 2007 yil.
5. J.Yo'ldosheva va F.Yo'ldobeva. Interfaol ta'lim sifat kafolatlari. T; 2009
6. www.pedagog.uz.
7. www.ziyonet.uz.